



**BUXORO VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

# **BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR-IYUL**

2023- yilning yanvar-iyul oylarida Buxoro viloyatida jami **5 256,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **103,4 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

### Norasmiy sektor




# 2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 447

Bino va inshootlar qurish

448

Fuqarolik obyektlarini qurish

704

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 88,1 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 55,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,3 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 129,1 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 27,1 foiz ulushni va 85,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.08.2022- y.	01.08.2023- y.	
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 950</b>	<b>2 599</b>	<b>88,1</b>
<b>Buxoro shahri</b>	957	812	84,8
<b>Kogon shahri</b>	131	109	83,2
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	79	76	96,2
<b>Buxoro</b>	227	180	79,3
<b>Vobkent</b>	123	118	95,9
<b>G'ijduvon</b>	196	145	74,0
<b>Kogon</b>	146	144	98,6
<b>Qorako'l</b>	111	113	101,8
<b>Qorovulbozor</b>	56	57	101,8
<b>Peshko'</b>	186	163	87,6
<b>Romitan</b>	259	247	95,4
<b>Jondor</b>	235	209	88,9
<b>Shofirkon</b>	244	226	92,6



# 2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (31,2)



Romitan t. (9,5)



Shofirkon t. (8,7)



## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5256,2</b>	<b>742,5</b>	<b>2896,6</b>	<b>1617,1</b>
<b>shahar:</b>				
Buxoro sh.	1 303,5	219,5	811,3	272,7
Kogon sh.	210,4	76,9	106,8	26,7
<b>tuman:</b>				
Olot	322,9	87,8	99,9	135,2
Buxoro	348,0	10,7	191,2	146,1
Vobkent	261,7	0,0	184,6	77,1
G'ijduvon	433,9	0,1	181,5	252,3
Kogon	394,2	3,3	267,7	123,2
Qorako'l	215,9	5,7	99,5	110,7
Qorovulbozor	200,0	142,5	41,7	15,8
Peshko'	354,7	0,0	234,9	119,8
Romitan	541,8	180,1	207,1	154,6
Jondor	282,8	0,0	183,0	99,8
Shofirkon	386,4	15,9	287,4	83,1





2023- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 742,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,6 % punktga kamayib, 14,1 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari 2023-yil yanvar-iyul uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 71,2 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 82,2%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 36,6% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 42,6 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,1% i to'g'ri kelib, 2022- yilning ko'rsatkichiga nisbatan 0,4% punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,2% ni tashkil etgan holda 2 896,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



55,1

2023-yil yanvar-iyul


54,7

2022- yil yanvar-iyul



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (287,4 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 74,4 %), Vobkent tumanida (184,6 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 70,5 %) va Kogon tumanida (267,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 67,9 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **30,8 %** ni tashkil etdi yoki **1 617,1 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,3 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **267,4 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 988,8 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,1 %** va **94,9 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyul



Davlat mulki

Nodavlat mulki

2023- yil yanvar-iyul



Davlat mulki

Nodavlat mulki

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar-iyul oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **72,1 %** i yoki **3 790,4** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**11,1 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **419,3** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **11,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 935,0** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **51,0 %** ni tashkil etdi.

**51,0 %**

**37,9 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 436,1** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **37,9 %** ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5652,2</b>	<b>103,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	1303,5	112,3	24,8
Kogon sh.	210,4	70,7	4,0
<i>tuman:</i>			
Olot	322,9	103,6	6,1
Buxoro	348,0	103,7	6,6
Vobkent	261,7	101,4	5,0
G'ijduvon	433,9	105,2	8,3
Kogon	394,2	98,5	7,5
Qorako'l	215,9	116,6	4,1
Qorovulbozor	200,0	80,0	3,8
Peshko'	354,7	102,4	6,7
Romitan	541,8	114,8	10,3
Jondor	282,8	105,0	5,4
Shofirkon	386,4	101,3	7,4



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,8 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko'payib, 44,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'payib, 48,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 21,6 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 3,1 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,4 % (3,1 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

## ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2022- yil  
yanvar-iyul



2023- yil  
yanvar-iyul

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi va 39,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 60,2 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % punktga ko'paydi.



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5256,2</b>	<b>3335,4</b>	<b>1361,9</b>	<b>558,9</b>
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1303,5	702,2	503,2	98,1
Kogon sh.	210,4	91,9	87,9	30,6
<i>tuman:</i>				
Olot	322,9	183,1	42,2	97,6
Buxoro	348,0	252,1	72,2	23,7
Vobkent	261,7	172,3	69,2	20,2
G'ijduvon	433,9	342,4	70,6	20,9
Kogon	394,2	264,6	95,3	34,3
Qorako'l	215,9	160,0	41,1	14,8
Qorovulbozor	200,0	66,4	17,5	116,1
Peshko'	354,7	241,3	87,5	25,9
Romitan	541,8	427,8	90,4	23,6
Jondor	282,8	192,8	69,7	20,3
Shofirkon	386,4	238,5	115,1	32,8



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul



ulushi % da



# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2605,8</b>	<b>101,7</b>
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	4488,5	110,3
Kogon sh.	3288,4	69,3
<i>tuman:</i>		
Olot	3129,2	102,1
Buxoro	1983,0	102,1
Vobkent	1787,7	99,7
G'ijduvon	1362,7	103,3
Kogon	4743,7	96,5
Qorako'l	1270,2	115,2
Qorovulbozor	10204,2	78,4
Peshko'	2742,9	100,7
Romitan	3623,8	112,8
Jondor	1547,0	103,3
Shofirkon	2089,5	100,0



# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul uchun



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 10 204,2 ming so'm (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 78,4 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 4 743,7 ming so'm (yoki 96,5 %), Buxoro shahri – 4 488,5 ming so'm (yoki 111,1 %), Romitan tumani – 3 623,8 ming so'm (yoki 103,3 %) va Kogon shahri – 3 288,4 ming so'm (yoki 69,3 %) egalladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (65) 223-81-99